

TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: KELAJAK PEDAGOGIKASIGA YO'L

Xasanova Nigora Nizomovna

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi

musiqa madaniyati metodisti

Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni hamda kelajak pedagogikasiga qo'yilayotgan talablar yoritilgan. Shuningdek, interfaol metodlar, raqamli ta'lim, kreativlik va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning afzalliklari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Innovatsion yondashuvlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ijodkorlik, kelajak pedagogikasi.

INNOVATIVE APPROACHES IN EDUCATION: THE PATH TO FUTURE PEDAGOGY

Xasanova Nigora Nizomovna

Methodist of Music Culture

Jizzakh Regional Pedagogical Skill Center

The power that makes a country strong and a nation great is science, education, and upbringing. Shavkat Mirziyoyev

Abstract: In this article, the significance of innovative approaches in the educational process, the role of modern pedagogical technologies, and the requirements for future pedagogy are highlighted. Moreover, the advantages of

interactive methods, digital education, creativity, and a learner-centered approach are analyzed.

Keywords: Innovative approaches, modern pedagogical technologies, interactive methods, digital education, learner-centered education, creativity, future pedagogy.

Bugungi kunda ta'lim tizimi globallashuv, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti va jamiyat ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanayotgan bir davrda pedagogning kreativ yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida innovatsion yondashuv - bu o'qitish va tarbiyada ilg'or usul, texnologiya va metodlarni qo'llash orqali samaradorlikka erishishdir. Zamonaviy talablar doirasida ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish, xalqaro tajribalarni amaliyotga olib kirish va natijadorlikka erishish, o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda ushbu jihatlar e'tiborga olinishi kerak:

- Interfaol metodlar – “Sehrli shlyapa”, “Bu kim?”, “Sayohat”, “Davrlar stuli” kabi metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish.
 - Raqamli texnologiyalar – elektron darsliklar, mobil ilovalar, onlayn ta'lim platformalari (Kahoot , Google Classroom, ZOOM va boshqalar).
 - Gamifikatsiya – “Kim zukko”, “Ob havo”, “Mevali salat” kabi o'yin elementlari va enerjayerlar orqali ta'lim jarayonini qiziqarli tashkil etish.
- Shuningdek, kelajak pedagogikasi oldiga ham o'ziga xos talablar qo'yiladi:

- Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini hisobga olish.
- Ijodkorlik va kreativlik – o'quvchilarda yangicha fikrlashni shakllantirish.
- Axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi – raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish.
- Hamkorlikda ta'lim – jamoada ishlash, muloqot qilish va muammolarni birgalikda hal etish. Sifatli ta'lim berishdagi eng muhim jihatlardan biri o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikdir. O'quvchi bilan hamkorlik — bu o'qituvchi

va o'quvchi o'rtasida bilim olish jarayonida tenglik, o'zaro hurmat va faol muloqot asosida tashkil etiladigan pedagogik munosabatdir.

O'quvchi bilan hamkorlikning mazmuni:

❖ O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ishonch – o'quvchi o'z fikrini erkin ayta olishi, savol berishdan qo'rqqanligi, har bir o'tilgan mavzuni erkin bayon qilishi.

❖ Sheriklik asosida ta'lim – o'qituvchi bilimni "tayyor" bermaydi, balki o'quvchi bilan birgalikda izlaydi.

❖ O'quvchini faol subyekt sifatida ko'rish – o'quvchi bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki yaratuvchi.

❖ O'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash – o'qituvchi o'quvchining fikrini qadrlaydi, xatolarni to'g'rilashda uni kamsitmaydi.

O'qituvchi o'quvchi bilimni oshirishda noodatiy usuldan foydalanishi maqsadga muvofiq. Shu o'rinda, darsni qiziqarli tashkil etish yuzasidan tavsiya. Kayfiyat ulashuvchi stikerlar tarqatiladi. Stikerlar kayfiyat ulashadi, shu bilan birga orqa qismida yozuv va raqam yashiringan. Yozuvlarda kayfiyat ulashuvchi va faollikka ilhom beruvchi ijobiy sifatlar aks etgan. O'quvchilar kayfiyatni a'lo darajaga ko'taradi, ingliz tilida berilgan ta'rifni yodida saqlab qolishi lozim. O'quvchilar berilgan raqamlarni inglizcha aytadi va shu raqamlar orasidan tanlangan o'quvchilarga vazifa beradi. Bunda chaqirgan o'quvchilar doska yoniga chiqadi. Juft raqamlar o'ng tomonga, toq raqamlar chap tomonga joylashadi. Stol ustida mevalar solingan savat. O'quvchilar stolga teskari turadi. Jarayon boshlandi. 1-topshiriq. O'qituvchi aytgan mevani stolga yuz burib, zudlikda topishi lozim. Topshiriqni guruhlar raqibi bilan juftlikda amalga oshiradi. Tabiiyki, topshiriqni bajarolmagan o'quvchilar joyiga o'tiradi. O'qituvchi 2-topshiriqni beradi. Mevalarning orqa qismiga milliy cholg'ular rasmi joylashtirilgan. O'quvchilar ushbu savollarga ketma ketlikda javob beradi:

1-savol. Ushbu cholg'u nomini ayting.

2-savol. Nimaga bu meva ortida aynan ushbu cholg'u rasmi turibdi? Javoblar eshitilgach, o'qituvchi savolni o'z javobi bilan to'ldiradi.

3-savol. Qanday cholg'ular guruhiga kirishi haqida 3 ta ma'lumot bering.

4-savol. Ushbu ohang hozir biz o'rgangan cholg'ular orasidan qaysi biriga tegishli?

Savolga to'liq javob bergan o'quvchilar baholanadi. O'qituvchi faol qatnashmagan o'quvchilarni doska oldiga chiqaradi. Darsda o'rganilishi uchun berilgan musiqiy asar audiosi qo'yiladi va o'quvchilarga musiqa tinglash davomida tasavvurida gavdalangan rasmni chizish topshirig'i beriladi. Fanlararo integratsiya asosida berilgan topshiriqlarni bajarish darajasini hisobga olgan holda o'quvchilar baholash yo'li bilan rag'batlantiriladi.

Bir so'z bilan aytganda, o'quvchi bilan hamkorlik ta'lim jarayonida shaxsiy rivojlanishga, mustaqil fikrlashga, mas'uliyatni his qilishga, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. O'qituvchi – yo'lboshchi, o'quvchi esa faol ishtirokchi bo'ladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodkorligini va hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Innovatsion metodlarni tizimli tatbiq etish orqali ta'lim jarayonida samaradorlikka erishish, kelajak avlodni zamon talablari darajasida tarbiyalash mumkin. Innovatsion ta'limning afzalliklari o'quvchilarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanaishi, bilim olish jarayoni samarali va qiziqarli bo'lishi, o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlashida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Ibrohimov O, Sadirov J. Musiqa. 7-sinf uchun darslik. G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. – T.: 2017.

2. Xoliqov A.X. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati". 2017.

3. Ochilov M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: Fan va texnologiya, 2018.

4. To'raqulov H. Pedagogik innovatsiyalar va interfaol metodlar. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019.

5. Xasanova N.N. O'zbek milliy musiqasi tarixidan. Umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda bolalar musiqa va san'at maktablari uchun uslubiy qo'llanma. Turon-Iqbol. T.: 2020. 6 b.

6. Sodiqova Sh.A. Interfaol metodlar orqali ta'lim samaradorligini oshirish. T.: 2021.

7. Xasanova N.N Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar ijodkorligini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish. Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa madaniyati o'qituvchilari uchun o'quv-metodik qo'llanma, "Bookmany-print", T.: 2024. 78, 82 b.